

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi raisi
B. Hamrayevning 2026-yil 1-yarim yilligi yakunlari bo‘yicha
korruptsiyaga qarshi kurashish yuzasidan statistika organlari xodimlari
va tadbirkorlik subyektlariga
MUROJAATI

Assalomu alaykum hurmatli hamkasblar hamda statistik hisobot topshiruvchi korxona va tashkilotlar vakillari!

Bugungi kunda korruptsiyaga qarshi kurashish faqat huquqiy talab emas, balki davlat boshqaruvi sifati, ochiqlik, raqamli xizmatlar va jamoatchilik ishonchini ta‘minlaydigan muhim boshqaruv madaniyatiga aylanmoqda. Statistika organlari uchun bu masala ayniqsa dolzarb: rasmiy statistika ma‘lumotlarining xolisligi, hisobot topshirish jarayonlarining shaffofligi hamda foydalanuvchilarga teng va adolatli munosabat bevosita halollik tamoyiliga bog‘liq.

Shu o‘rinda, **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning** “Korruptsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart” degan chaqirig‘i statistika tizimining har bir rahbar va xodimi uchun amaliy dastur bo‘lib xizmat qilishi lozim.

So‘nggi yillarda ushbu sohada huquqiy va institutsional asoslar yanada kuchaytirildi. Jumladan, 2017-yil 3-yanvardagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun, 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son qaror bilan korruptsiyaga qarshi bilimlarni uzluksiz oshirishga qaratilgan Virtual akademiya tizimi, 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmon va PQ-147-son qaror, shuningdek 2025-yil 30-dekabrda PF-270-son Farmon hamda 2026-yilda tasdiqlangan korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta‘minlash maqsadida Milliy statistika qo‘mitasi tizimida korruptsiyaga qarshi siyosat, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, xabar berish mexanizmlari, xizmat tekshiruvlari, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, sovg‘alar va manfaatlar deklaratsiyasi, davlat xaridlari shaffofligi hamda xodimlarni umumiy va maxsus o‘qitish tartiblarini qamrab olgan **jami 15 ta ichki idoraviy hujjat** amaliyotga joriy etildi.

Alohida ta‘kidlash lozimki, 2026-yil 1-yarim yilligida korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ishlar riskka asoslangan yondashuv, raqamli monitoring, manfaatlar to‘qnashuvini oldindan aniqlash va xodimlarning shaxsiy mas‘uliyatini

kuchaytirish tamoyillari asosida tashkil etildi. Hududiy statistika organlarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘limlari, rasmiy axborot kanallari va murojaat mexanizmlarida joylashtirilgan ma’lumotlarning dolzarbligi qayta ko‘rib chiqildi.

Tizimda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida Qo‘mitaning **Ishonch raqami** (+99871 203-80-00), **“Call” markazi** — 1151, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limining +99871 203-80-00 (1450) raqami, rasmiy veb-saytdagi maxsus sahifa, ijtimoiy tarmoqlar va @anticorrupsiyastatbot orqali murojaat yuborish imkoniyati muntazam ishlashi ta‘minlandi. Ushbu kanallar xodimlar, respondentlar va tadbirkorlik subyektlari uchun ochiq, tezkor va shaxsni oshkor etmasdan xabar berish imkonini beradigan aloqa mexanizmlari sifatida yuritilmoqda.

Statistika organlari tizimida xodimlarning ish faoliyati bilan bog‘liq muammolarini o‘rganish, korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuzasidan xabarlarni qabul qilish va ularni belgilangan tartibda ko‘rib chiqish maqsadida barcha hududiy statistika boshqarmalarida “Adolat qutisi” yoki “Murojaatlar qutisi” faoliyati davom ettirildi. Mazkur qutilar **har 15 kunda** dalolatnoma asosida tekshirilib, natijalari bo‘yicha Qo‘mitaga ma’lumot kiritib borilishi yo‘lga qo‘yilgan.

2026-yilning 1-yarim yilligi davomida **155 nafardan ortiq xodimlar** umumiy malaka oshirish va profilaktik o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etdi, korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi **38 nafardan ortiq xodimlarga** 12 soatlik maxsus modulli o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi. O‘quv jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvi, sovg‘alar bilan bog‘liq cheklovlar, davlat xaridlari, xizmat safarlari, respondentlar bilan muloqotda manfaatdorlikka yo‘l qo‘ymaslik hamda xabar bergan shaxslarni himoya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Profilaktik targ‘ibot ishlari doirasida markaziy apparat va hududiy bo‘linmalarda **420 dan ortiq** banner, flayer, buklet, eslatma, plakat va boshqa ko‘rgazmali materiallar tarqatildi. Shuningdek, rasmiy veb-sayt va ichki axborot kanallarida korrupsiyaga qarshi eslatmalar, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha tushuntirishlar hamda xodimlar uchun qisqa tavsiyalar joylashtirib borildi.


Zamonaviy tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali modeli faqat javobgarlik choralaridan iborat bo‘lmay, balki oldini olish, ochiqlik, raqamlashtirish, ma’lumotlar izchilligi va real vaqt rejimida monitoring qilishni talab etadi. Shu sababli Qo‘mita tizimida e-Anticor platformasi uchun ma’lumotlarni sifatli shakllantirish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish, xaridlar va kadrlar jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvini barvaqt aniqlash

hamda ichki nazorat bo'linmasining mustaqil ishlashiga sharoit yaratish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Qo'mitaning har bir rahbar va xodimi sohada korrupsion holatlarning oldini olish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, xizmat vazifasini xolis bajarish va statistik ma'lumotlarni tayyorlash hamda tarqatishda qonuniylik, halollik va professional etika talablariga qat'iy amal qilish uchun shaxsan mas'ul ekanligini chuqur anglab yetishi lozim.

Shu fursatdan foydalanib, barcha statistika organlari xodimlarini, statistik hisobot topshiruvchi tadbirkorlik subyektlari va hamkor tashkilotlarni korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz bo'lishga, shubhali holatlar yuzasidan belgilangan aloqa kanallari orqali xabar berishga hamda statistika tizimida ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillarini yanada mustahkamlashga chorlab qolaman.

Milliy statistika qo'mitasi raisi



B. Hamrayev